

Ajoyib tush



15:00 / 28.02.2019 6382

1

Yusuf kichkina bola edi. Uning o'n bir akasi bor edi. Yusuf chiroyli bola edi. Yusuf ziyrak bola edi. Uning otasi Ya'qub hamma inilari orasida uni ko'proq yaxshi ko'rar edi. Kechalarning birida Yusuf ajoyib tush ko'rdi. Tushida o'n bitta yulduz, quyosh va oyning unga sajda qilayotganini ko'rdi. Kichik Yusuf bundan ko'p taajjublandi. Bu tushning (ta'birini) tushunmadi. Qanday qilib yulduzlar, quyosh va oyga sajda qiladi?

Kichik Yusuf otasining oldiga bordi va ko'rgan ajoyib tushi haqida gapirib berdi.

“Ey otajonim, men o'n bitta yulduzni, quyosh va oyni ko'rdim, ularning menga sajda qilayotganlarini ko'rdim” (*Yusuf surasi, 4-oyat*).

Uning otasi Ya'qub payg'ambar edi. Ya'qub bu tushdan ko'p xursand bo'ldi.

“Ey Yasuf! Borakalloh (Alloh seni barakotli qilsin), seni sha’ning ulug’ bo’ladi”, dedi. “Bu tush ilm va nubuvvat bashoratidir. Alloh uni sening bobong Ishaqqa ham, bobong Ibrohimga ham in’om etgan. Albatta U senga ham, Ya’qub avlodlariga ham in’om etadi”.

Ya’qub keksa kishi edi, u odamlarning tabiatini yaxshi bilar edi. U shayton qanday mag’lub bo’lishini ham bilar edi. Shayton odam bilan qanday o’ynashishini ham bilar edi. U: “Ey bolam! Bu tushni inilaringdan birortasiga ham aytma, chunki ular senga hasad qilib, dushmanga aylanishlari mumkin”, dedi.